

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TABIAT MARKAZLARI ORQALI ILMIY DUNYOQARASHINI TAKOMILLASHTIRISH

**Saparniyazova Aygul Qutlimuratovna
Maktabgacha ta’lim kafedrasи assistant o‘qutuvchisi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga tabiat markazlari orqali ekologik ta’limtarbiya berish, tabiat, ularda atrofmuhitga nisbatan hurmat, ehtiyyotkorona munosabat va unga mas’uliyat bilan qarash hissini tarbiyalash, maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasiga oid masalalar yoritilgan, uning mazmuni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, ekologik ta’lim, atrof-muhitga munosabat, ekologik madaniyat, bolani tabiat bilan tanishtirish.

KIRISH

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillardanoq mamlakatimizda ekologik masalalar, tabiatda ro‘y berayotgan noxush hodisalar oqibatini bartaraf etish, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan bunday vaziyatlarning oldini olish kabi dolzarb vazifalarga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Insonning tabiatga noto‘g‘ri munosabati natijasida yuzaga keladigan salbiy holatlarning oldini olishda ekologik ta’limtarbiyaning o‘rnini nihoyatda katta.

Jahoning barcha mamlakatlari kabi O‘zbekistonda ham shaxs va jamiyatning moddiy va ma’naviy madaniyati ekologik mazmunga ega bo‘lmoqda. Endilikda respublikamizda chiqindisiz, kam chiqitli va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish va takomillashtirish, ekologik huquqbazarliklar uchun ma’muriy-huquqiy choralar ko‘rish, ekologik ma’rifat orqali aholining ekologik tafakkurini rivojlantirish, xalqaro ekologik munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, tabiat, atrof-muhitga ko‘rsatilayotgan salbiy antropogen ta’sirlarni kamaytirish, insonning atrof-muhitga sifat jihatidan yangicha munosabatini shakllantirishga olib kelmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga qo‘yilgan umumiy talablarda ham ularning ekologik mas’uliyatni his qilishi, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga egabo‘lishi lozimligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Vatanimiz tabiatni, atrof-muhitiga nisbatan hurmat, ehtiyyotkorona munosabat va unga mas’uliyat bilan qarash hissini maktabgacha yoshdagagi har bir bola shaxsida tarbiyalashimiz lozim. Maktabgacha yoshdagagi bola o‘z atrofidagi tabiiy ijtimoiy muhit ta’sirida va mahallada o‘rnatilgan axloqiy ekologik tartibotlar asosida yashaydi. Zero, yurtimizning go‘zal tabiatni, uning kelgusi holati aynan ularning atrof-muhitga bo‘lgan munosabati orqali belgilanadi.

Zaminimizdagi tabiiy manbalarni asrab avaylashning eng muhim vositalaridan biri o‘sib kelayotgan yosh avlodni tabiatni asrashga oid ekologik bilimlardan xabardor qilish, ularga ekologik tarbiya berish hisoblanadi. Tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish, uning boyliklaridan unumli foydalanish, tevarak atrofdagi muhitni yaxshilash, uning buzilishi, ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik, tabiatga nisbatan axloqiy qimmatdagi hatti harakatlarni amalga oshirish malaka va ko‘nikmalari esa bolalikdan rivojlantirilsagina maqsadga erishish mumkin. Ayni maqsadlar insonning butun hayoti davomida mafkura, siyosat, san’at, adabiyot, ilmiy bilimlar, ishlab chiqarish amaliyoti, ta’lim tarbiya, tashviqot orqali amalga oshirilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bolalardagi atrof-muhitga bo‘lgan qiziqishni qo‘llab quvvatlash bilan bir vaqtda, ularni tabiatni asrab avaylash ruhida tarbiyalash kerakligini esdan chiqarmaslik kerak.

Shunga e’tibor berish kerakki, katta odamlarning o‘zlari tabiatni sevishlari va bu tuyg‘uni bolalarda uyg‘ota olishlari zarur. Biz insonlarning hech qachon tabiat bilan aloqamiz uzilmaydi. Shunday ekan, bolalarga kichkina dala, gulning chiroyi, quyosh botishidagi ranglar jilosi, nastarin gulining gullashini ko‘rish va qushlar chug‘urlashining ohanglarini eshitish uchun sabrtoqatli bo‘lish kerakligi va go‘zallikni his qilishni o‘rgatish lozim.

Ekologik ta’lim tarbiya maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni ma’naviy-ma’rifiy tarbiyalash, tabiat go‘zalliklarini ko‘ra bilishlarida katta yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga tarbiya berishda unga toza kiyim kiydirish, yurish turishining ozoda bo‘lishini uqtirib turish ilk ekologik tarbiyaning asosi bo‘ladi. Bola yashaydigan uy va uning atrofi toza, shinam va chiroyli bo‘lsa, farzand ham shunday yashashga intiladi.

Tabiat bolani ma’naviy boyitishning bitmastuganmas manbaidir. Bolalar doimo uyoki bu shaklda tabiat bilan aloqada bo‘ladilar. Ularni yamyashil o‘tloqlar,

anvoysi gullar, kapalaklar, qo‘ng‘izlar, qushlar, hayvonlar, suzib yurgan bulutlar, pag‘a-pag‘a yog‘ayotgan qor uchqunlari, jilg‘a va ko‘lmaklar o‘ziga jalg qiladi. O‘simlik hamda jonzotlarning xilma-xil olami bolalarda tabiatga nisbatan jonli qiziqish va havas uyg‘otadi, ularni faoliyatga undaydi. Tabiat bilan muloqotda bo‘lish bolalarda atrofolam haqida realistik bilim, jonli mavjudotga insoniy munosabatda bo‘lishni shakllantirishga yordam beradi.

Bolalar tabiat haqida juda bo‘lmaganda ilk bilimlarni egallab, o‘simliklarni o‘stirish, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o‘rganib, tabiatni kuzatish, uning go‘zalliklarini ko‘ra olishni bilib olgan taqdirdagina ularda tabiatga nisbatan ehtiyyotkorlik va g‘amxo‘rona munosabatda bo‘lishni tarbiyalash imkoniyati tug‘iladi. Bolalarda tabiat, jonajon o‘lka, ona vatanga muhabbat xuddi mana shu asnoda shakllanadi.

Tabiatga nisbatan aqliy, estetik munosabatlar bola tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilimlarning mazmun bilan yaqindan bog‘liqdir. Ekologik mazmun bilan bog‘liq bo‘lgan bilim tabiatda bolalar faoliyati va ularning o‘zini tuta bila olishi, intizomini boshqarib turadi va maqsad sari yo‘naltiradi. Tabiatga bo‘lgan munosabatni shakllantirishdabolalar idrokiga yetarli darajada yetib boruvchi tabiat qonunlari bo‘yicha bilim alohida o‘rin egallaydi. Tabiatga nisbatan bo‘lgan munosabatni rivojlantirish (mashg‘ulot, ekskursiya, sayr qilish kabi hayotiy vaziyatlar) bolaning ma’naviyijobiy, ruhiy kechinmalariga asoslangan pedagogik jarayonni tashkil qilish bilan yaqindan bog‘liq.

Tarbiyachi bolada tirik jonzotga nisbatan achinish, uni asrab avaylash, jonli tabiat bilan uchrashganda undan babra olish, quvonish, taajjublanish, o‘zining qilgan ishidan mag‘rurlanish, qoniqish hissini uyg‘ota bilishi kerak.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni tabiat, yilning turli fasllarida unda ro‘y berib turadigan o‘zgarishlar bilan tanishtirib boriladi. Hosil qilingan bilimlar asosida tabiat hodisalarini aniq tushuna bilish, qiziquvchan bo‘lish, kuzata bilish, mantiqan fikr yurita olish, jamiki tirik narsaga zavqshavq bilan qarash kabi fazilatlar shakllanib boradi. Tabiatga mehrqo‘yish, uni ehtiyyot qilib e’zozlash, tirik jonivorlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishtabiatga qiziqish uyg‘otibgina qolmay, balki bolalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiat boyliklarini ardoqlab, ko‘paytirib borayotgan kattalarning mehnatiga hurmat bilan qarash kabi eng yaxshi xususiyatlarni shakllantirib borishga ham yo‘l ochadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasining xona o’simliklari va ba’zi hayvonlar parvarishlab boqiladigan tabiat burchagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish, unga mehruhabbat uyg‘otishga yordam beradi.

Ekologik ta’lim tarbiya – insonning tabiatdan ongli ravishda foydalanish, psixologik axloq odob yuzasidan xalqimizning tabiatga nisbatan e’tibor bilan qaraydigan urfo datlari, an’analari assosida yoshlarnitarbiyalash, ular ongida tabiat, uning boyliklariga mehruhabbat uyg‘otish, ularni tejamkorlikka va tabiiy boyliklarni asrab avaylashga o’rgatishdan iborat.

XULOSA VA MUNOZARA

Ekologik ta’limtarbiya maktabgacha yoshdagibolalarning ekologik madaniyatli bo‘lib voyagayetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- bolalarning o‘zi yashab turgan shahar, qishloq, mahalla, xonadoniga bo‘lgan mehr muhabbat tuyg‘usi, vatanparvarlik ruhini shakllantiradi;
- bolalar ona tabiatni sevish, ardoqlash, undan g‘ururlanish ruhida tarbiyalanadi;
- bolalarda suvni iflos va isrof qilmaslik tushunchalari rivojlanadi;
- bolalarda kuzatuvchanlik, atrofmuhit go‘zalligini anglash bilan bog‘liq bo‘lgan qiziqishlar rivojlanadi;

bolalar o’simliklar, hayvonlar tabiatning bir qismi, inson u bilan bog‘liqligi, tabiatni asrabavaylash zarurligini tushunib yetadilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti O‘zbekistonga tegishli ikkinchi Atrofmuhit holati sharhining 29seriyasi. 2010.
2. «Bolajon» tayanch dasturi. – T., 2010.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat dasturlari. – T., 2008.
4. Ismoilov A., Ahadov R. Ekologik ta’limtarbiya. – T.: «O‘qituvchi», 1997.
5. Grigoryans A.G., Gafurova U. Bolalar bog‘chasida ekologik tarbiya. – T.: «O‘qituvchi», 2002.
6. Grosheva I.V., Mirziyyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ilk qadam davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022